

TARIX FANI UCHUN YOZMA VA OG'ZAKI MANBALARNING SHAKLLANISHI

Boltayev Oxun Obid o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti "Ijtimoiy fanlar va texnika" fakulteti,

Tarix va filologiya kafedrası, o'qituvchisi

email: 9690798@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.14741425>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix fanining shakllanishi, uning qadimiy manbalarga asoslangan rivojlanish jarayoni va O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy o'rni haqida fikr yuritilgan. Tarixning yozma manbalari paydo bo'lishidan avvalgi davrda epik asarlar asosiy tarixiy ma'lumot manbasi bo'lib xizmat qilgani, yozuvning kashf etilishi esa tarixshunoslikka yangi yo'nalish ochgani ta'kidlanadi. Zardushtiylikning tarixi, qadimgi yunon va rim tarixchilari asarlaridagi O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalari haqidagi ma'lumotlar o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tarix fani, Zardushtiylik, O'rta Osiyo, epik asarlar, yozma manbalar, Gerodot, skiflar, eftalitlar, Turk xoqonligi, O'rxun bitiklari, tarixshunoslik, Xitoy manbalari.

THE FORMATION OF WRITTEN AND ORAL SOURCES FOR THE SCIENCE OF HISTORY

Abstract. This article considers the formation of the science of history, its development based on ancient sources, and the historical place of the peoples of Central Asia. It is emphasized that epic works served as the main source of historical information in the period before the emergence of written sources of history, and the discovery of writing opened a new direction for historiography. The history of Zoroastrianism, information about the nomadic tribes of Central Asia in the works of ancient Greek and Roman historians was studied.

Keywords: History, Zoroastrianism, Central Asia, epic works, written sources, Herodotus, Scythians, Hephthalites, Turkic Khaganate, Orkhon inscriptions, historiography, Chinese sources.

ФОРМИРОВАНИЕ ПИСЬМЕННЫХ И УСТНЫХ ИСТОЧНИКОВ
ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКИ

Аннотация. В статье рассматривается становление исторической науки, ее развитие на основе древних источников, историческая роль народов Средней Азии. Подчеркивается, что эпические произведения служили основным источником исторических сведений в период до появления письменных источников истории, а открытие письменности открыло новое направление историографии. Изучена история зороастризма и сведения о кочевых племенах Средней Азии в трудах древнегреческих и римских историков.

Ключевые слова: История, зороастризм, Средняя Азия, эпические произведения, письменные источники, Геродот, скифы, эфталиты, Тюркский каганат, Орхонские надписи, историография, китайские источники.

Tarix fan sifatida qachon va qanday paydo bo'lgan? Ushbu savolga javob olish uchun antik, ya'ni qadimgi yunon-rim manbalariga murojaat qilinadi. Yozuv vujudga kelgunga qadar epik asarlar ("epos" – grekcha so'z bo'lib, "doston", "rivoyat" va "afsona" ma'nolarini anglatadi) tarixni o'rganish uchun yagona manba hisoblangan (masalan, Gomerning "Iliada" va "Odyssey", Markaziy Osiyo xalqlarining "Alpomish", "Manas" va "Go'ro'g'li" dostonlari bilan birga rus bahodirlari haqidagi Vladimir, Muromli Ilya, Dobrinya Nikitich, Alyosha Popovich kabi xalq eposlari yoki "Igor polki jangnomasi"). Yozuv ixtiro qilinganidan so'ng tosh yoki binolardagi bitiklar va yilnomalar eng qadimgi yozma tarix manbalari hisoblanadi. O'sha davrlardagi voqealarning guvohlari yoki zamondoshlari yozib qoldirgan manbalar, keyinchalik xattot va shoirlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan yoki og'izdan-og'izga ko'chib, bizgacha yetib kelgan asarlar qadimiy manba hisoblanadi. Chamasi, o'z yozuviga ega bo'lgan barcha xalqlarda bitiklar va yilnomalar uchraydi. 1. Zardushtiylik – insoniyat madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan dunyodagi eng qadimgi dinlardan biridir. Ayni vaqtda, zardushtiylik eng murakkab, o'z navbatida tushunish qiyin bo'lgan dinlardan hisoblanadi. Bundan 2700- yil muqaddam Osiyo dashtlarida vujudga kelgan ushbu din Erondagi uch qudratli (Kayoniylar, Ahamoniylar va Sosoniylar) davlatlarda uzoq asrlar hukm surgan din bo'lishi bilan birga, u juda ko'p Sharq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyoda ham tarqalgan edi. Yevropada Zardushtiylik ta'limoti antik davr – qadimgi zamonlardayoq katta qiziqish uyg'otgan, Zardusht va uning ta'limoti haqida ko'pchilik yunon va rimlik yozuvchilar, faylasuflar va tarixchilar ilmiy asarlar yozganlar. Sosoniylar davrida, ya'ni III–VII asrlarda zardushtiylikning muqaddas kitobi – "Avesto" matnlari o'rta forsiy tilga ko'chirila boshlagan vaqtlardayoq mazkur din tarixshunosligi tug'ila boshlagan edi. Shuni ta'kidlash mumkinki, miloddan avvalgi I asrda yaratilgan "Shahrihoyi Eron", "Denkard", "Bundahishn" va "Ardavirafnoma" kabi pahlaviy tilida bitilgan kitoblar hamda sharhlar avestoshunoslikning muqaddimasidir. Saklar, massagetlar, toxarlar va qadimgi Qanxa xalqi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlarni hindlarning epik dostoni "Maxabxarata"da ham uchratish mumkin. "Maxabxarata" ("Bxarata avlodlari jangnomasi") sanskrit tilida yozilgan bo'lib, 100 ming baytni o'z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Asar mil.avv. X–VIII asrlarda yaratilgan bo'lib, unda afsonaviy shoh Bxarataning ikki toifa avlodlari – kavravlar va nandavlarning o'zaro adovatlari hamda urushlari bayon etiladi. Asarda, jumladan, uzoq Hindistonga, fikrimizcha, savdo-sotiq ishlari bilan borgan saklar, toxarlar va qanxaliklar haqida ushbu muhim ma'lumot keltirilgan: "Uning (podshoh Yudxishtra) eshigi oldida boshqa xalqlar

bilan birga saklar, toxarlar va qanxalıklar ham navbat kutib turardilar. Paxmoq soqol, peshonalari shoxlar bilan bezatilgan, qo'llarida turli-tuman sovg'alar – jun, rangu, ipak va patta (oq qayinning bir turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolar, paxtadan to'kilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va o'tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har xil boltalar, ichimliklar, xushbo'y narsalar, turli-tuman qimmatbaho toshlar". Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida O'rta Osiyoning chorvador xalqlari haqida batafsil ma'lumotlar uchraydi. Ushbu xalqlar tarixini yozish Gomer va Esxil kabi adiblar tomonidan boshlangan. Lekin, skif (sak va massaget)lar haqida keng va aniq ma'lumotlarni birinchi bo'lib miloddan avvalgi V asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodot beradi. Kvint Kursiy Ruf (milodiy I asr), Plutarx (milodiy I asr), Arrian (milodiy II asr), Pompey Trog (miloddan avvalgi I asr), Yustin (miloddan avvalgi II–I asrlar) kabi muarrixlar ham O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalarining turmush tarzi, urf-odatları va mashg'ulotları to'g'risida ma'lumotlar beradi. Antik tarixchilardan Strabon (mil.avv. I asr) birinchi bo'lib O'rta Osiyo ko'chmanchi xalqlarini umumiy bitta (skif) nomi bilan emas alohida hududiy joylashishiga qarab, mayda guruhlarini ham sanab ko'rsatadi. Uning yozishicha: "Skiflarning katta qismi Kaspiydan boshlab sharqqa tomon daxlar deyiladi. Ulardan sharqdagilar sak va massaget deyiladi". Miloddan avvalgi VI–IV asrlarga oid manbalarda hudud aholisi asosan chorvador ko'chmanchilar ekanligi ta'kidlansa, keyingi manbalarda (miloddan avvalgi IV–II asrlar) saklarning statsionar manzilgohlari, oddiy uylari borligi haqida ham ma'lumotlar berilgan. Gerodotning "Tarix" asari.

Gerodot – miloddan avvalgi V asrda yashagan yunon tarixchisi bo'lib, garchi o'zi bayon qilayotgan voqealar ustida chuqur mulohaza yuritmasa ham, ularni to'g'ri ifodalashi, o'zga xalqlar va mamlakatlar tarixiga hurmat nuqtai nazaridan qarashi bilan ba'zi tarixchilardan ajralib turadi. Gerodotning asarida Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlari bo'lmish agrippiyalar, issedonlar, massagetlar, skiflar, daylar va saklar haqida, ularning turmushi, urf-odatları hamda qo'shni mamlakatlar bilan aloqaları haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Yunon muarrixlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, skiflar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Gerodot: "Ular bug'doy, piyoz, sarimsoq va mosh iste'mol qilganlar. Ular bug'doyni faqat o'zlari uchungina ekib qolmasdan, balki savdo-sotiq uchun ham ekardilar", – deb yozgan edi. Gerodot skiflarning chorvachilik ishlariga ham qiziqib qaraydi. Uning qayd etishicha, ko'chmanchi skiflar ko'chganda qulay bo'lishi uchun namatdan g'ildirakli arava – uy yasab olar edilar. Yuk tashishda ular otlardan tashqari mollardan ham foydalanganlar. Gerodotning fikricha, skiflar kuchli davlatga ega edi. "Tarix" asarining Shteyn tomonidan tayyorlangan tanqidiy matni 1869–1871 yillarda chop etilgan. Asar ingliz (Roulinson, London, 1856–1860 yillar) hamda rus (F. G. Mishchenko, Moskva, 1858–1860 yillar) tillariga tarjima qilingan. 1982 yilda asarning mamlakatimiz tarixiga oid qismlari zarur izohlar bilan A. I. Dovatur, D. P. Kallistov va I. A. Shishova tomonidan yangidan nashr etilgan. V asr o'rtalarida Eftalitlar davlati shakllanishi oxiriga yetdi. Eftalitlar davri

bo'yicha asosiy manbalar rimlik tarixchi Ammian Marselin (IV asr), vizantiyalik tarixchi Prisk Paniyskiy, Prokopiyy Kesariyskiy va Feofan Vizantiyskiy asarlaridir. Suriyalik yozuvchi Zenob Glakning yunon tilida yozilgan "Eftalit podshohlari tarixi" asari ham asosiy manba hisoblanadi.

Eftalitlar tarixi bilan shug'ullanuvchilar ko'pchilikni tashkil etsada, ularning etnik tarkibi, tabiati haqida nuqtai nazar mavjud emas. Eftalitlar turli tillarda turlicha nomlanadi: kitoblarda yenda yoki i-da, armanlarda xeptal, idal, tetal, arablarda – xaytal, yaftal, yunonlarda – adel, eftalit, suriya manbalarida – abdel, eftalit, o'rta fors tilidagi manbalarida – yeftal, xeftal, tojik-fors tilidagi manbalarida – xetal, xaytal. Xitoy manbalarida eftalitlarning kelib chiqishi haqida juda ko'p taxminlar bor, lekin ular bir-biriga qarama-qarshidir. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, eftalitlarning kelib chiqishi va so'zning ma'nosi to'g'risida tarixchilar o'rtasida yagona fikr yo'q.

VI asr o'rtalariga kelib Markaziy Osiyoda yirik ko'chmanchilar davlati – Turk xoqonligi tarkib topdi. Ushbu davrga oid ma'lumotlar yetarli, biroq ular bir-biriga qarama-qarshi va aniq ma'lumotlar bermaydi. Mazkur davrga oid voqealar Tabariyning "Tarix ar-rasul va-l mulk" va Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asrida ham bayon etilgan. Turk xoqonligi bilan bog'liq ba'zi masalalar I. Bichurin, V. V. Bartold, A. Yakubovskiy, A. Bernshtam va boshqa olimlarning asarlarida bayon qilingan. "Turk" atamasi etnik mazmunni anglatmay, bir necha qabila va xalq birlashuvini bildiruvchi siyosiy atama sanalgan. S. P. Tolstovning fikricha, "Turk" so'zi "yosh, uylanmagan jangchi" ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z qabila an'analari va nihoyat siyosiy jihatdan birlashgan xalqlarning umumiy nomiga aylangan. Yozuv insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan. Yozma yodgorliklar ham insoniyat tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Turkiy xalqlar tarixini o'rganishda yozma manbalar, ular orasida O'rxun daryosi qirg'oqlaridan topilgan yozuvlar muhim manba vazifasini o'taydi. Ushbu bitiklarni o'qish daniyalik olim Vilgelm Tomson va rossiyalik olim V. V. Radlovlar zimmasiga tushdi. 1893- yilning oxirida V. Tomson O'rxun daryosi qirg'oqlaridan topilgan yozuvlarni o'qiganligi haqida Daniya qirolligi FA yig'ilishida axborot berdi. Tomsondan keyin Radlov ham 1894- yil 19- yanvarda Rossiya FA yig'ilishida Kulteginga bag'ishlangan bitiktoshni o'qiganligi haqida ma'lumot berdi. V. Tomson va V. Radlovlardan keyin bitiktoshlarni turli tillarga tarjima qilish hamda nashr etish ishlari bilan M. P. Melioranskiy, S. Ye. Malov va I. V. Stebleva shug'ullandilar. Bu borada o'zbek olimlaridan A. Fitrat, O. Sharofiddinov, A. Qayumov, T. Salimov, G'. Abdurahmonov va A. Rustamovlarning xizmati katta. Yurtimiz tarixini o'rganishda Xitoy manbalarining ham ahamiyati katta. Miloddan avvalgi II asrda yashagan xitoy tarixchisi Sima Syan o'tgan davr davomida bitilgan va saqlanib qolgan xotiralarni jamlash hamda o'rganish asosida o'zinig mashhur "Tarixiy xotiralar" nomli asarini yozgan edi. Shundan so'ng Xitoyda tarixiy asarlarni yozish tez rivojlandi. Milodiy 319- yildan boshlab tarixshunoslikka oid asarlar ham vujudga kelgan.

Xitoyda yaratilgan “Ershi sishi” (24 tarix) asari 3,5 ming yillik tarixiy voqealarni o’z ichiga oladi. 24 ta tarixiy asar xoqonlar nazorati ostida bitilganligi uchun uning o’ziga xos kamchiliklari mavjud. Masalan, ayrim voqealarni bayon etish va ularga baho berishda hukmron sulola manfaati ustun qo’yilgan, o’zgalarning nuqtai nazari hamda manfaati hisobga olinmagan. Ushbu manbalarning Turkiston tarixi uchun benihoya ahamiyati – bulardan boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlarning mavjudligidir. Turkiston tarixi bilan bog’liq xitoy manbalarini o’rganishda va tarjima qilishda Rossiya olimlari ichida N. Ya. Bichurinining xizmati benihoya katta. O’zbekistonda Xitoy manbalarini o’rganish bo’yicha Ablat Xo’jaevning tadqiqodlari muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Bartold, V. V. Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlar. Moskva, 1963.
2. Avesto. Zardushtiylik va uning diniy an’analari. Toshkent, 2001.
3. Gerodot. Tarix. Moskva, 1989.
4. Obid o’g’li, B. O., & Zaynievich, O. M. (2024). BUXORO VA JUNG’OR XONLIKLARI O’RTASIDA SIYOSIY MUNOSABATLAR TARIXI.
5. Boltayev, O. (2024). QO’QON XONLIGINING XVIII ASR SO’NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO’CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
6. Obid o’g’li, B. O. QO’QON XONLIGINING XVIII ASR SO’NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO’CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
7. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
8. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA’SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
9. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.
10. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
11. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.

12. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
13. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
14. Yunus ogli, H. M. (2023). QADIMGI MESOPOTAMIYA SHAHAR-DAVLATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR.
15. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
16. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227
17. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
18. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
19. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
20. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
21. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(10), 49-51.
22. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. (2024). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578.
23. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
24. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
25. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.

26. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. *Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz)*, 42(42). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10963
27. Umidjon Xayrullayev. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13958464>
28. 6. Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li. (2024). LEGITIMACY OF RULERSHIP IN THE STATE OF CENTRAL ASIA AND IRAN IN ANCIENT TIMES AND THE EARLY MIDDLE AGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222295>
29. Юсупович, К. С. (2024). КРАТКИЙ ОБЗОР НА ВЗАИМООТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И ДВИЖЕНИЯ “ТАЛИБАН”, НА ФОНЕ ЗАХВАТА ТАЛИБАМИ ВЛАСТИ В АФГАНИСТАНЕ В 2021 ГОДУ. *ТА’ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(11), 227–229. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/12432>
30. Yusupovich, K. S. (2024). Abu Hafs Kabir and the Spread of the Hanafi Madhhab in Transoxiana. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 204–207. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4079>
31. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
32. Muyiddinov Bekali. (2023). MO’G’ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
33. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
34. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
35. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>

36. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
37. XORAZMSHOHIDLAR DAVLATI HAYOTIDA TURKON XOTUNNING O'RNI. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 463-469. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5192>
38. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). The coronation and campaigns of Alexander The Great. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 400–412. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11222912>
39. Muyiddinov Bekali. (2024). COVERAGE OF LEGAL ISSUES IN "AVESTO". МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 222–230. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12191420>
40. MUYIDDINOV BEKALI, & QORYOG'DIEV Z. (2022). ABOUT THE CONQUEST OF BUKHARA BY THE KHOREZMSHAHS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 158–161. Retrieved from <https://www.ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/383>
41. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS ARE THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14503228>
42. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
43. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40-43.
44. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLİ AVLOD-UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
45. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
46. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

47. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
48. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
49. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
50. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
51. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
52. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
53. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
54. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
55. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
56. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
57. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
58. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
59. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
60. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.